

**ANALYSIS OF APPROACHES TO DEFINING POLITICAL PARTIES****Doniyor Utkirovich Botirov***PhD Candidate (Basic Doctoral Student)**Tashkent State University of Oriental Studies**Email: botirovdoniyor506@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: political party, political spectrum, party system, electoral system, functional approach, structural approach, ideological approach, electoral approach, democracy and pluralism.

Received: 14.09.25**Accepted:** 15.09.25**Published:** 16.09.25

Abstract: In this article, the author analyzed a number of theoretical approaches to the definition of political parties. Political parties play an important role in the development of democracy and civil society, but there is no consensus on their definition. The article examines classical theories (for example, the approaches of Western European and CIS scientists), functional, electoral, and ideological approaches. The advantages and disadvantages of each approach will be analyzed, and its application in the context of Uzbekistan will be discussed. As a result, the author proposes a personal approach, based on the view of parties as a political structure of society.

SIYOSIY PARIYALARNI TA'RIFLASHGA DOIR YONDASHUVLAR TAHLILI**Doniyor O'tkirovich Botirov***Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti**E-mail: botirovdoniyor506@gmail.com**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, siyosiy spektrum, partiyaviy tizim, saylov tizimi, funksional yondashuv, strukturaviy yondashuv, mafkuraviy yondashuv, elektoral yondashuv, demokratiya va pluralizm.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif siyosiy partiyalarni ta'riflashga doir bir qator nazariy yondashuvlarni tahlil qilgan. Siyosiy partiyalar demokratiya va fuqarolik jamiyati rivojida muhim o'rin tutadi, ammo ularning ta'rifi bo'yicha bir xil fikr yo'q. Maqolada klassik nazariyalar (masalan, G'arbiy Yevropa va MDH olimlarining yondashuvlari), funksional, elektoral, mafkuraviy

yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Har bir yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari tahlil etiladi, shuningdek, O‘zbekiston kontekstida qo‘llanilishi muhokama qilinadi. Natijada, muallif shaxsiy yondashuv taklif etiladi, bu yondashuv partiyalarni jamiyatning siyosiy tuzilishi sifatida ko‘rishga asoslanadi.

АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К ОПРЕДЕЛЕНИЮ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ

Дониёр Ўткирович Ботиров

Докторант (начальный уровень)

Ташкентский государственный университет востоковедения

Эл. почта: botirovdoniyor506@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политическая партия, политический спектр, партийная система, избирательная система, функциональный подход, структурный подход, идеологический подход, электоральный подход, демократия и плюрализм.

Аннотация: В данной статье автор проанализировал ряд теоретических подходов к определению политических партий. Политические партии играют важную роль в развитии демократии и гражданского общества, но нет единого мнения по их определению. В статье рассматриваются классические теории (например, подходы ученых Западной Европы и СНГ), функциональный, электоральный, идеологический подходы. Будут проанализированы преимущества и недостатки каждого подхода, а также обсуждены их применимость в контексте Узбекистана. В результате автор предлагает индивидуальный подход, основанный на рассмотрении партий как политической структуры общества.

Kirish. Siyosiy partiyalar zamonaviy demokratik jamiyatlarning asosiy institutlaridan biri sifatida davlat boshqaruvi, jamoatchilik fikrini shakllantirish va siyosiy jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, ideologik yo‘nalishlari va davlat siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Partiyalar demokratiyalarda siyosiy raqobat va siyosat ishlab chiqishni tashkil etuvchi muassasalardir. Partiyalarning hal qiluvchi ahamiyatini hisobga olgan holda, siyosatshunoslar uzoq vaqtdan beri ularning qanday tashkil etilishi va saqlanib qolinishini, shuningdek, siyosatda ular xizmat qiladigan manfaatlar va vazifalarni tushunishga harakat qilib kelmoqdalar. Partiyalar haqidagi turli nazariyalar bu savollarga turlicha javob beradi va shu sababli partiyalarning xatti-harakatlari hamda ularning demokratik hisobdorlik va javobgarlikni oshirishdagi roli to‘g‘risida turli bashoratlar keltirib chiqaradi. Shunday ekan,

siyosiy partiyalarni nazariy jihatdan tadqiq qilish va uni tariflash bugungi kunda yetarlicha tadqiq qilinmagan sohalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, siyosiy partiyalarni ta'riflash va tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Siyosiy partiyalarning jamiyatda kechayotgan jarayonlarga ta'siri nuqtai nazaridan tadqiq etish, ushbu tuzilmalarning xususiyati, o'ziga xosliklarini o'rganishda XVI-XVIII asrlarda faoliyat yuritgan olimlarning asarlari muhimdir. Jumladan, N. Makeavelli "Hukmdor" va "Florensiya tarixi", Devid Yum "Umuman partiyalar to'g'risida", Bolinbrok "Partiyalar haqida mulohazalar", J.J.Russo "Ijtimoiy shartnoma to'g'risida", T.Jefferson "Demokratiya haqida" kabi asarlarda yuqorida keltirilgan mavzular yuzasidan fikrlar va qarashlar keltirib o'tilgan.

Taniqli partiyashunos-siyosatshunos olim B.Yoqubov XIX asrda partiyalarni o'rganish yuqori bosqichga ko'tarilganini alohida ta'kidlaydi. Yevropaning aksariyat davlatlari va AQShda XIX asrning ikkinchi yarmida siyosiy partiyalar siyosiy tizimning ajralmas qismiga aylanib bo'lgani, qolaversa, milliy parlamentlarning rivojlanib borishi, partiya va partiyaviy tizimlarni yanada chuqurroq o'rganish talabini olimlar oldiga qo'ydi. Ushbu davrda mavzu tahliliga o'z xissasini qo'shgan olimlardan T.Vaskmut, F.Gizo, de Tokvil, T.Romer, B.Konstan, F.Paunsel va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ularning asarlarida mazkur davrga kelib shakllangan sharoit siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki masalalarini tahlil qilish barobarida ilk bor siyosiy partiyalarga ta'rif berilgan (B.Konstan), partiyalar tipologiyasi (de Tokvil, T.Romer), jamiyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichlariga mos ravishda partiyalar ham taraqqiy etib borishi (T.Vaskmut) va boshqa jihatlariga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Joseph LaPalombara and Myron Weiner kabi olimlarning "Siyosiy partiyalar va siyosiy taraqqiyot" nomli kitobida siyosiy partiyani ta'riflashda partiyalarning rivojlanayotgan demokratiyalarda siyosiy faoliyatga jalb qilish va ishtirok etishdagi faoliyatiga alohida e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Nolan Makkarti va Erik Schikler "Siyosiy partiyalar nazariyasida" maqolasida siyosiy partiyalarning nazariy jihatdan o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari, tariflashga doir o'z shaxsiy qarashlarini bayon etganlar.

O'zbekistonda siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimni tadqiq qilgan bir qator partiyashunos olimlar mavjud. Xususan, O'zbekistonda siyosiy partiyalarni ta'riflash va tasniflashga doir ana'analarni boshlab bergan siyosatshunos Muqimjon Qirg'izboyev "Partologiya" o'quv qo'llanmasi, "Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar va madaniyatlar" nomli darsliklarida siyosiy partiyalarga dastlabki ta'riflash mexanizmlarini bayon qilganlar. Professor Ixtiyor Bekov esa siyosiy partiyalarni ta'riflashda huquqiy va normativ aspektlarga alohida e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi. Faylasuf Sirojiddin Berdikulov o'z monografiyasida siyosiy

partiyalar ta'riflashda falsafiy nuqtai nazardan qarashga alohida e'tibor berish kerak deb hisoblaydi.

Tadqiqot usullari

Ushbu maqolani yozilda muallif siyosiy partiyalarni nazariy jihatdan tahlil qilish va partiyalarni ta'rifga doir masalalarni tarixiylik metodi, tizimli tahlil, kontent tahlil va boshqa tahlil usullaridan foydalanilgan. Zamonaviy davrda siyosiy partiyalarni tariflashga doir yondashuvlarni tahlil qilishda qiyoslash va taqqoslash kabi metodlardan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar

Zamonaviy partiyalar "bir tamoyil asosida tuzilgan partiyalar, ayniqsa mavhum va taxminiy prinsipga ega bo'lib, faqat bizning davrimizga ma'lum bo'lib, balki insoniyat hayotida sodir bo'lgan eng g'ayrioddiy va tushunarsiz fenomen" , - deb Devid Yum o'zining mashhur "Partiyalar haqida" asarida ta'kidlaydi boshqa partiyalardan chegaralanib turishi uchun xizmat qiladi. Siyosiy mafkura siyosat sub'yektlari sifatida insonlar o'rtasidagi o'zaro institusional munosabatlarga ahamiyat qaratish, aniq ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda siyosiy borliqni tushuntirish, uni asoslab berish, shuningdek, himoya qilish yoki uni inkor etishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda siyosat turlicha mafkuraviy tizimlar, mafkuraviy-siyosiy oqimlar va yo'nalishlarning to'qnashuv maydoni hisoblanadi.

Bugungi kunda siyosiy partiyalarning 100da ziyod ta'riflari mavjud. Xususan, partiyaning strukturaviy (M.Dyuverger, M.Ostrogorskiy), funksional (K.Louson, V.Krotti, R.Makridis), saylovga doir bo'lgan (D.Sartori), strukturaviy-funksional (K.Neumann, J.Polambara, J.L.Kermonn), mafkuraviy (Lipset va Rokkan, K. fon Beyme) ta'riflari mavjud.

Funksional yondashuv doirasida ta'rifda partiyalarning roli maqsadiga alohida e'tibor beriladi. Tarixan shunga o'xshash yondashuv siyosiy partiyalarning bir qator tadqiqotchilariga xos bo'lgan, masalan, P.A.Berlin, partiyalarni "aniq ijtimoiy yoki siyosiy maqsadga erishish uchun ommaning erkin tashkilotlari" - deb ta'riflagan. Zamonaviy olimlar orasida funksional ta'rif tarafdori K.Louson bo'lib, u "eng qoniqarli va eng foydali, shuningdek, eng umumiy ta'rif partiya tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan siyosiy harakatlarni ta'kidlaydigan ta'rifdir" deb hisoblaydi. Uning so'zlariga ko'ra, "siyosiy partiya – bu ma'lum bir institut ustidan siyosiy hukmronlikni amalga oshirish uchun saylovlar orqali yoki saylovga qo'shimcha ravishda xalq yoki ularning bir qismining vakolatlarini kengaytirishga intiladigan shaxslar tashkiloti" .

Nemis siyosatshunos olimlaridan E. Shatshnayder va J. Shumpeter ham partiyaning vazifalariga alohida e'tibor qaratdi va partiyalarni hukumat ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida birlashgan uyushma sifatida belgiladi .

Partiyaning saylov bilan bog'liq ta'rifini saylov funksiyasini partiya bajaradigan barcha funksiyalar ichida eng muhimi sifatida aniqlashga asoslanadi. Masalan, D. Sartori siyosiy partiyaning

saylovda faol ishtirok etuvchi va shu tufayli davlat institutlariga o'z nomzodlarini tanishtirish imkoniyatiga ega bo'lgan siyosiy guruh deb ta'riflaydi. Bunda siyosiy partiyaning mohiyati, eng avvalo, ma'lum bir siyosatchilar guruhining hokimiyat tepasiga kelishini ta'minlovchi saylov jarayoni bilan bog'liqligida ko'rinadi. Shuningdek, S.Lipset va Rokkan siyosiy partiyaga quyidagicha ta'rif bergan: Siyosiy partiya bu saylovlarda raqobatlashuvchi va hokimiyatni qo'lga olishga intiluvchi shaxslar jamoasi deya ta'rif beradi.

Zamonaviy amerikalik siyosatshunos Charlz Mak demokratik davlatdagi siyosiy partiya deganda o'z faoliyatini yagona markaz ostida amalga oshiradigan, davlat hokimiyati organlariga o'z vakillarini ko'rsatuvchi, boshqa partiyalar bilan raqobatlashuvchi va hukumat hamda axborot tuzilmasi ustidan nazoratni qo'lga kiritishni maqsad qilgan fuqarolarning mustaqil, institutsionallashgan birlashmasi sifatida ta'riflaydi. Olimning bu kabi ta'rif berishi elektoral yondashuvga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

Siyosatshunoslikda, shuningdek, partiyaning mohiyatini uning tashkiliy tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlaridan chiqaradigan tarkibiy ta'riflarni ham mavjud. Strukturaviy yondashuv an'analari M. Ya.Ostrogorskiy va R. Mishelsning hozirgi siyosiy partiyalar tuzilmaviy dinamikasi qonuniyatlarini va demokratik jamiyatda ularning oligarxizatsiya tendensiyalarini o'rgangan asarlariga borib taqaladi. Zamonaviy ilm-fanda tarkibiy yondashuv, birinchi navbatda, partiyaning eng muhim atributlari sifatida ularning tuzilishi xususiyatlari, mavjudlik muddati, tashkiliy tuzilma omillari kabi xususiyatlarni aniqlagan Moris Dyuverjer tomonidan ifodalanadi. Partiya fenomeni haqida berilgan ta'riflar orasida M. Dyuverge tomonidan berilgan ta'rif klassik hisoblanadi. M. Dyuverge ta'kidlaganidek, "zamonaviy siyosiy partiyalarni tashkil etish tabiatida ularning mohiyati dasturlarga yoki sinfiy tarkibga qaraganda ancha to'liqroq ochib berilgan: partiya ma'lum bir o'ziga xos tuzilishga asoslangan jamoadir". M. Dyuverjening bu ta'rif ilmiy jihatdan biroz sodda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi G'arb tadqiqotchilaridan biri S. Neyman partiyaning "davlat hokimiyatini nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan, xalq qo'llab-quvvatlashi uchun raqobatlashadigan siyosiy vakillarning qonuniy tashkiloti" sifatida murakkab tarkibiy-funksional ta'rifni shakllantirishga juda muvaffaqiyatli urinishgan. Strukturaviy-funksional tarifga Yu.S.Gambarovning "Siyosiy partiyalarning o'tmishi va hoziri" nomli mashhur asarida keltirilgan ta'rifi yaqinroqdir. Uning ta'kidlashicha, siyosiy partiya –qonun doirasida umumiy manfaatlari va g'oyalari asosida birlashgan shaxslarning birgalikda harakat qilish uchun tashkil etilgan erkin ijtimoiy guruhlardir. Bu kabi ta'riflash ilmiy jihatdan talablarga javob bersada, keng jamoatchilik uchun biroz murakkab edb hisoblaymiz.

J. Lapolambara partiyaning to'rtta tashkiliy xususiyatini aniqladi:

1. partiya mafkura tashuvchisi;

2. partiya - bu tashkilot, ya'ni odamlarning uzoq muddatli birlashmasi;
3. partiyaning maqsadi hokimiyatni qo'lga kiritish va uni saqlab qolish;
4. Har bir partiya xalqning qo'llab-quvvatlashini ta'minlashga harakat qilmoqda .

Yuqoridagi kabi ta'riflash yetarli ilmiy-nazariy asosga ega, chunki J. Lapolambara siyosiy partiyalarning demokratik davlatdagi ahamiyati haqida fikr –mulohazalarni bildirib o'tish bilan bir qatorda siyosiy partiyaning bajaradigan vazifasiga qarab ta'riflash joizligini aytib o'tadi.

Ma'furaviy ta'rif deb ataladigan ta'rif dasturiy va yakdil qarashlarining umumiylikiga asoslanadi. Shunday qilib, Klaus fon Beyme partiyaning "umumiy siyosiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda harakat qiladigan hamfikrli insonlar guruhi" - deb tushunadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 74-moddasi aynan siyosiy partiyalarga bag'ishlangan: "Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar". Olimlarning bu intilishlariga qaramasdan, bugungi kungacha siyosiy partiyalarga doir umume'tirof etilgan tarifi mavjud emas.

O'zbek olimlaridan biri B.Yakubov "Siyosiy partiya – umumiy maqsad va qadriyatlar atrofida birlashgan, o'z intilishlarini siyosiy hokimiyatni egallashga yoki uni amalga oshirishda ishtirok qilishga yo'naltirilgan shaxslarning ko'ngillilikka asoslangan siyosiy tashkilotidir" deb ta'riflaydi. Yuqorida keltirilgan ushbu ta'rifda siyosiy partiyalarga xos bo'lgan xususiyatlar (uning hokimiyatga intilishi, ko'ngilli birlashma ekanligi kabilari) nisbatan kengroq qamrab olinganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, M.Qirg'izboyev siyosiy partiyalarga uni to'liq ochib beruvchi ta'riflarni berib o'tgan. Masalan, "Siyosiy partiyalar u yoki bu ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari va muammolarini o'zida ifodaetadi, ularni jamiyatdagi siyosiy munosabatlarda himoya etadi. Siyosiy partiyalar ma'lum bir ijtimoiy qatlamlarning siyosiy manfaatlarining ifodalovchisi sifatida hokimiyat uchun kurashadi, hokimiyatni egallagan taqdirda esa o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy qatlam muammolari, shuningdek, saylovlarda o'ziga xayrixohlik qilgan saylovchilar xohish – irodalarini amalga oshirishga intiladi".

Yuqoridagilardan kelib chiqib mualliflik ta'rifini berishimiz joiz. Siyosiy partiya - bu umumiy siyosiy qarashlar, g'oyalar va maqsadlarga ega bo'lgan hamda davlat siyosati va boshqaruviga ta'sir ko'rsatish yoki uni nazorat qilishni maqsad qilgan shaxslarning uyushgan guruhi. Siyosiy partiyalar bu maqsadlarga asosan saylov jarayoni orqali erishishga intiladi. Ular davlat lavozimlariga o'z nomzodlarini ko'rsatadi va saylovchilar uchun muhim bo'lgan masalalar bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi.

Xulosa

Muxtasar qilib aytganda, olimlar XVI-XVIII asrlardagi siyosiy partiyalarni umumxalq manfaatlarini himoya qiluvchi va ifoda etuvchi birlashma sifatida emas, balki siyosiy, iqtisodiy va qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan elitalar ichidagi tor guruhlar manfaatlari ifodachisi sifatida talqin qilishgan. Ammo, vaqt o'tishi bilan siyosiy partiyalarga nisbatan munosabat va ularning faoliyat yuritish shakllarining o'zgarishi ko'zga tashlandi. Siyosiy partiyalar endi chinakam xalqning xohish-irodasini siyosiy arenada himoya qiluvchi kuchga aylandi. Shuni hisobga olgan holda, siyosiy partiyalarni ta'rif berishga doir yondashuvlarni tahlil qilish va o'z yondashuvimizni ishlab chiqishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy partiyalarni ta'riflashga doir yondashuvlar tahlili ularning murakkab va ko'p qirrali mohiyatini ochib beradi. Klassik yondashuvlar (Duverger, 1954; Sartori, 1976) partiyalarni tashkiliy tuzilma va elektoral funksiyalar nuqtai nazaridan ko'rib chiqsa, funksional yondashuvlar (Key, 1964) ularning jamiyatdagi rolga e'tibor beradi. Institutsional yondashuvlar (Panebianco, 1988) partiyalarni davlat institutlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi, sotsiologik yondashuvlar esa (Lipset va Rokkan, 1967) ijtimoiy sinflar va guruhlar bilan aloqasini tahlil qiladi. O'zbekiston kontekstida ushbu yondashuvlar qisman qo'llaniladi, ammo mahalliy siyosiy madaniyat va qonunchilik xususiyatlari integratsion yondashuvni talab qiladi. Kelajakda O'zbekiston siyosiy tizimida partiyalarni yanada samarali tahlil qilish uchun ushbu yondashuvni qo'llash bo'yicha empirik tadqiqotlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.Yoqubov. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari va siyosiy partiya. Monografiya. T.: Ilm ziyo zakovat. –B.25.
2. Nolan McCarty and Eric Schickler. “On the Theory of Parties”. Annual Review of Political Science. // Electron resource: <https://doi.org/10.1146/annurev-polisci-061915-123020>
3. Юм Д. Сочинения. Т. 2. – М.: Мысль, 1996. –С. 512.
4. Болинброк Г. Рассуждения о партиях // Политические институты: Избирательное право и процесс в трудах западноевропейских мыслителей XVII – начала XX века. М.: Фонд «Символ» – РЦОИТ, 2013.
5. Зульцбах В. Основы образования политических партий. М.: Европа, 2016. -С.17.
6. Strmiska M. A Study on Conceptualization of (Ethno) Regional Parties // Central European Political Studies Review. 2002. Vol. IV. –p.53
7. Sartori Giovanni. Parties and Party Systems: A Framework for Analysis. New York and Cambridge: Cambridge University Press.1976. –P.86.
8. S.Lipset, S. Rokkan Party Systems and Voter Alignments: Cross-National Perspectives

9. Mack C. When Political Parties Die: A Cross-national Analysis of Disalignment and Realignment..Los Angeles, 2010. –P.19.
10. Дюверже М. Политические партии. М., 2000. –С.22.
11. Даниленко В. Н. Политические партии и буржуазное государство. М.: Юридическая литература, 1984. С.84.
12. Зульцбах В. Основы образования политических партий. М.: Европа, 2006. С. 17-61
13. Джанда К. Сравнение политических партий: исследования и теория // Современная сравнительная политология. М., 1997. С. 84-43.
14. Beyme K. Von. Political Parties//Western Democracies. Aldershot, 1985. –P. 18.
15. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. // Elektron resusr: https://constitution.uz/uploads/constitution_oz.pdf
16. Bo‘tayev U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik/ U.X.Bo‘tayev – Toshkent: Info Capital Books, 2024. –B.112.
17. Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent —Yangi asr avlodi. 2013. –B.187.